XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-19-137-7-105-K/25 Urgut tumani

Urgut tumanining 2025-yil IV chorak mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 127-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining navbatdagi yetinchi chaqiriq yigirmanchi sessiyasi.

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qaroriga asosan tumandagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 602000,0 (olti yuz ikki million) ming so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Urgut tuman bo‘limi tasarrufidagi mahallalarning “Mahalla jamg‘armasi”ga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun Samarqand viloyati

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-2-013-7-105-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 10-bandi hamda 2-ilovasidagi 9-bandlari tuman mahalliy byudjeti hisobidan Urgut tuman mahalliy byudjetining 2025 yil 4-chorak daromadlari va xarajatlarini 602 000,0 (olti yuz ikki million) ming so‘mga 1-ilovaga muvofiq oshirilsin.

3.Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (B.Salomov) Urgut tuman mahalliy byudjetining 2025 yil 4-chorak daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Azimurodov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Kamolov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **SAYIDKULOV DILMUROD BASTAMOVICH**

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-137-7-105-K/25 -son qaroriga
1-ilova

a.Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-2-013-7-105-K/24-son qarori 1-ilovasidagi 10-bandi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Soliq turi	**Tasdiqlangan parametr**	**Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi**	**Jami**
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	35 959 000	602 000	36 561 000

b.Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-2-013-7-105-K/24-son qarori 2-ilovasidagi 9-bandi “Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Xarajat turi	**Tasdiqlangan parametr**	**Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi**	**Jami**
“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	4 798 000	602 000	5 400 000